



**DIDAKTIK TA'LIM VOSITALARI TALIM JARAYONI SAMARADORLIGINI
TA'MINLASH OMILI SIFATIDA**

DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.55.50.016>

*Abdullayev Qobiljon Fayzullayevich,
Buxoro dalat universiteti pedagogika kafedrasida dotsenti*

*Bobomurodova Nargiza Jo`rayevna
Buxoro dalat universiteti ekologiya va geografiya kafedrasida katta o`qituvchisi*

Annotasiya: mazkur maqolada ta'lim muassasalari o`quv-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlash, bilim oluvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi zamonaviy didaktik-texnik vositalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari mazmuni yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, jarayon, vosita, o`quv mashg`uloti, tafakkur, faoliyat, texnologiya, samaradorlik, natija.

**ДИДАКТИЧЕСКИЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ КАК ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА**

*Абдуллаев Кобилжон Файзуллаевич
доцент кафедры педагогики Бухарского государственного университета,*

*Бобомуродова Наргиза Джураевна
старший преподаватель кафедры экологии и географии Бухарского
государственного университета.*

Аннотация: данной статье описано содержание педагогических условий использования современных дидактически-технических средств, положительно влияющих на развитие творческого мышления учащихся, и на в эффективность образовательного процесса в общеобразовательных учреждениях,

Ключевые слова: обучение, процесс, инструмент, обучение, мышление, деятельность, технология, эффективность, результат.

**THE IMPORTANCE OF DIDACTIC TEACHING AIDS IN ENSURING THE
EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS**

*Abdullayev Qobiljon Fayzullayevich,
associate Professor of Pedagogy, Bukhara State University,*

*Bobomurodova Nargiza Jo`rayevna
Senior Lecturer, Department of Ecology and Geography, Bukhara State University.*

Abstract.: This article describes the content of the pedagogical conditions for the use of modern didactic and technical means that have a positive impact on the effectiveness of the educational process in educational institutions, the development of creative thinking of students.

Keywords: education, process, tool, training, thinking, activity, technology, efficiency, result

Kirish. Mashg`ulotlarni didaktik vositalardan foydalanib o`tkazish o`qituvchi tomonidan tashkil qilinadi. Shuning uchun didaktik vositalardan umumiy o`rta maktablarda darslarida, profesional ta'limi va oliy ta'lim muassasalarida esa ma`ruza, amaliy mashg`ulotlarni tayyorlash va o`tkazish nazarda tutilgan. Buning uchun dastlab o`quv dasturi, mavzu mazmuni yaxshilab o`rganilib, elektron o`quv darsligi yoki qo`llanmasi, virtual ko`rgazmalar, didaktik materiallar



tayyorlanadi. Bunda asosan nazariy ma'lumotlarni bayon etish, talabalarda nazariy-texnik tafakkurni rivojlantirish, kurs mazmuniga kiziqishni uyg'otish, mutaxassislikka tayyorlanish motivlarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

1. Didaktik vosita yordamida o'quv mashg'ulotini tayyorlash.

Didaktik vositalar majmuini o'quv mashg'ulotlarida tadbqiq etganda, ayniqsa, audiovizual vositalarni qo'llash quyidagi tartibda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

a) Didaktik vositalarni o'quv mashg'ulotiga tayyorlash:

b) didaktik vosita ma'lumotlarini idrok etishga o'quvchilarni tayyorlash:

g) didaktik vositalar mazmunidagi materiallarni namoyish etish uchun o'qituvchining qisqa izohi.

d) didaktik vositalardagi ma'lumotlarni o'quvchi xotirasida mustahkamlashni tashkil etish;

j) didaktik vositalar majmun mazmunidagi ma'lumotlarni to'ldirish uchun uyga topshiriqlar berish va h.k.

Asosiy qism. Didaktik vositalarni o'quv mashg'ulotiga tayyorlash: umumiy o'rta ta'lim maktablarining dars jarayoniga didaktik vositalar majmui tayyorlash muhim pedagogik hodisa ekanligini unutmaslik darkor. Chunki, har qanday faoliyatning muvoffaqiyat garovi-bu tayyorlanish hisoblanadi. Shu jihatdan mashg'ulotni didaktik vositalar yordamida o'tkazishga tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tayyorgarlik, o'quv yilining boshida o'quv fani bo'yicha o'quv-mavzuli (kalendar-tematik) reja tuzilayotgan davrda boshlanadi. Chunki, o'quv yurtida mavjud bo'lgan didaktik vositalarning katalogini o'rganib, o'qituvchi uni har bir mavzusi bo'yicha didaktik vositaning nomi, turli, agar u nomerlangan bo'lsa, nomerini ish rejasida ko'rsatadi.

Shundan so'ng mashg'ulot boshlanishidan bir kun oldin didaktik vositani o'quv xonasi yoki o'quv kabinetiga tayyorlab qo'yishi kerak.

Mabodo didaktik vosita texnika yoki axborot kommunikativ texnologiyadan iborat bo'lsa unda o'qituvchi ushbu vositalarning apparaturalarini ishga shay qilib qo'yishi darkor. Chunki, har qanday vositani namoyish etish uchun o'qituvchi tomonidan amalga oshirilgan texnik vositalari ishlash holatida bo'lishi, sinov ko'rsatuv o'tkazilgan bo'ladi. Ayrim hollarda o'qituvchilar bu ishni laborantlarga yoki mazkur vositalarni ishlatdigan texnik xodimlarga kishilarga topshiradilar. Bu, albatta xato. Darsda notanish kishining ishtirok etishi o'quvchilarni pedagogik jarayondan chalg'itishi va ularning diqqatini boshqa ob'yektga ko'chirishi mumkin. Didaktik vositalarni namoyish etishda yoki apparatura bilan ishlashda o'qituvchining O'TVni boshqarsa unda, sinf va butun o'quvchilari jamoasi oldida uning obruyi ko'tariladi. O'quvchilar nazarida o'qituvchi barcha ishlarni bajara oladigan va hamma narsani biladigan shaxs sifatida o'quvchilar tomonidan qabul qilinadi. Bu, albatta, o'qituvchi o'qitadigan fanga nisbatan o'quvchilarning qiziqishini orttirib, o'zlashtirish samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, texnika vositasi, audio, video vositalarini darsga tayyorlaganda, ularni bir necha marta sinab ko'rishi, mutaxassis bilan maslahatlashib apparaturani sinovdan o'tkazishi lozim. Shunga ishonch hosil qilgandan so'ng didaktik vositani namoyish etishga kirishish mumkin.

b) didaktik vosita ma'lumotlarini idrok etishga o'quvchilarni tayyorlash uchun, avvalo, didaktik vosita namoyish qilinishdan oldin, unda aks ettirilgan ma'lumotning o'quv fani, o'quv dasturi, o'quv mavzusi tizimida tutgan o'rnini o'quvchilar diqqatiga havola etish uchun ular haqida izoh berish talab etiladi. Shuningdek, didaktik vosita texnika quroli bilan bog'liq bo'lsa, unda apparaturaning necha quvvatli tokda ishlashini o'quvchilarga tushuntirib, texnika xavfsizligi bilan bilim oluvchilarni yaqindan tanishtirishi lozim.

Mabodo didaktik vosita namoyish etiladigan xonani qorong'ulashtirish lozim bo'lsa, unda mashg'ulot boshlanguncha uni tayyorlab qo'yishga to'g'ri keladi. Shundan so'ng o'qituvchi kirish so'zi qilib (4-5 haqiqa) namoyish etiladigan o'quv material haqida o'quvchilarga ma'lumot beradi. Bunda o'rganiladigan mavzu bilan didaktik vosita material o'rtasida aloqa o'rnatiladi va didaktik vosita mazmunidagi ma'lumotlarga o'quvchilarning e'tibori qaratilib, diqqati jalb qilinadi. Namoyishdan oldin o'quvchilarga topshiriqlar savol tarzida berilishi va

ushbu savollarga o'quvchilar didaktik vositada aks ettirilgan ma'lumot yordamida javob topish mumkinligi o'qchilarga o'qiriladi. Savollar shunday tuzilmog'i lozimki, ular namoyish etilgan didaktik vosita (ko'rgazma qurol, diafilm, kinofilm, videofil'm va h.k.) mazmunidagi asosiy g'oyani to'liq qamrab olgan bo'lib, o'quvchilarni fikrlashga, mustaqil ishlashga majbur etsin.

Ba'zan o'qituvchi yo'naltiruvchi savollar bilan didaktik vosita yordamida namoyish etiladigan o'quv materialidagi asosiy ma'lumotlarni, yoki badiiy asar qahramonlarining muhim xususiyatlarini idrok qilishga o'quvchilarni tayyorlaydi. Masalan, "Rasmda tasvirlangan holatni qisqacha izohlashga tayyorlaning", "O'tgan kunlar" filmida qanday axloqiy-ma'naviy muammo ilgari surilgan", "O'ylang" mazkur telelavha ishlab chiqarishning qanday xususiyatlarini aks ettirgan?" va shu kabilar. Bunda shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki har qanday didaktik vosita nafaqat ta'limiy balki, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni ham bajaradi. Shuning uchun namoyish etiladigan didaktik vositaning estetik jihatlariga ham e'tiborni qaratish lozim.

Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarni didaktik vositalar majmui mazmunini idrok etishda tayyorlar ekan har doim va hamma vaqt:

-didaktik vosita mazmunidagi ma'lumotlar bilan o'quv mavzusi ma'lumotlarining uzviy birligi;

-didaktik vositaning ma'lumotlarini xato o'zlashtirilishini oldini olishni;

-didaktik vosita yordamida o'quvchilar bilimni chuqurlashtirish, ko'nikma va malakalarni kengaytirish kabi masalalarni yoddan chiqarmaslik lozim.

- didaktik vosita yordamida o'quv ma'lumotlarini bayon etish.

Belgilangan o'quv muddatida DTSlari asosida zaruriy bilimlarni berish, o'quvchi-yoshlarni mustaqil ravishda fan, texnika yutuqlarini o'zlashtirishga tayyorlashda o'qitish shakllarini aniq tanlash va o'quv jarayonida o'quv-ko'rsatmali, texnik, axborot va kommunikativ texnologiyalardan foydalanishni rejalashtirish ish muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Shuning uchun, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bosqichi uchun zaruriy bilimlarini berishning shakllari, usullari va o'qitish vositalarini aniq tanlay olish o'qituvchining mahoratidir.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish ishlarining asosiy shakli dars hisoblanadi. Darsni muvaffaqiyatli tashkil etish va o'tkazishning muhim sharoitlaridan biri, darsda ta'lim vositalaridan oqilona foydalanishdir. Maktablarda asosan til (ona tili, rus tili, chet tili) darslari uchun lingafon kabinetlari tashkil etilgan. Mashg'ulotlar, til o'rganish shu kabinetda o'tkaziladi. Ammo, so'ngi yillarda ushbu fanlarni o'qitish jarayonida kompyuterlardan foydalanish keng amalga oshirilmoqda. Ayniqsa o'quvchilarning og'zaki va yozma nuqtalarini takomillashtirishda, mustaqil bilim olishlarini uyushtirishda keng foydalanilmoqda. Bu hol oliy ta'lim maktablarida ham keng yo'lga qo'yilgan.

Masalan, Buxoro davlat universiteti universitetining institutining chet tili o'qituvchilari H.Hakimova, Sh.Haydarovalar amaliy mashg'ulotlarda kompyuterdan foydalanib, o'quvchitalabalarning nutq boyligini oshirish, hozirjavoblikni, mustaqil izlanishni yo'lga qo'yishga harakat qilib, bunga erishmoqdalar. Darsdan olingan ma'lumotlar disketalarga ko'chirilib, uyda shaxsiy kompyuterda qayta mashq bajarish ishlari yo'lga qo'yish yordamida bilimlar mustahkamlanadi. Ular asosan: mashg'ulot matnini mashg'ulotdan oldin kompyuter dasturiga kiritadilar; bunda dastur bilan fan ishchi dasturi o'rtasida moslik ta'minlanadi. Topshiriqlarni ko'p variantida ishlab chiqishga e'tibor qaritiladi. Masalan, "Great Britain" mavzusi uchun yuqori o'qituvchilar quyidagi topshiriqlar tizimini ishlab chiqqan. Jumladan, birinchi topshiriq: buyuk Britaniyaning geografik o'rni, uning tarkibidagi davlatlar, ularning iqlimi, aholisi haqidagi leksik birliklarni ajratib ko'rsatish va tekstni soddalashtirish yo'larini izlash.

Ikkinchi topshiriq: Buyuk Britaniyaning ta'lim tizimi haqidagi savollarga yozma javob yozish.

Uchinchi topshiriq: Buyuk Britaniyaning davlat boshqaruv tizimi bo'yicha savollar tuzish va mantda ishtirok etgan fe'llarning zamon shaklini aniqlash va ularning infinitiv shaklini topish;

To'rtinchi topshiriq: buyuk Britaniyaning transport vositalari va ularning egalliklari haqida



ma'lumot to'plash.

Mazkur yo'nalishdagi topshiriqlar, birinchidan, mavzu mazmunidagi ma'lumotlarni kompyuter yordamida chuqur o'zlashtirishga yordam bersa, ikkinchidan, talabalarda mustaqil izlanish ko'nikmalarini shakllantiradi va burch hamda masuliyatni his etish ko'nikmalarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuningdek, audio va video, virtual ko'rsatmali vositalaridan foydalanish ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, ushbu yo'nalishda universal laboratoriyalar, ya'ni o'quv ko'rgazmali vositalar, audio, video apparaturalar, televizor ko'rsatuvlari ta'lim samaradorligi oshirish, o'quvchi-talabalar tarbiyalanganlik darajasini yaxshilashga xizmat qiladi. eng muhimi ularni tayyorlash va qo'llash texnologiyalariga ega bo'lishdir. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimida o'qitish samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchi-yoshlarda tarbiyalanganlik darajasini oshirishga ham foydalidir.

Ma'ruza matnini talabalarda bayon etishning yana bir pedagogik-psixologik tuzilmasi, bu ma'ruzani o'quv-ko'rsatmali vositalar yordamida ifodalashdir. Buning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyati shundaki, ularda talabalarning psixologik holatlarini shakllantirish orqali axborotni oddiy tarzda bayon etishdan, tinglovchilarning ijodiy tafakkurini tarkib toptiruvchi mexanizmlarini ishga solishgacha bo'lgan holatlarini o'z ichida. Buning muhim ko'rinishlaridan biri, muammoli vaziyatlarni yaratishni nazarda tutadi. Bunda o'qituvchi ta'lim muassasasida mavjud muayyan o'quv-ko'rsatmali vositalarga tayanib, navbatdagi mashg'ulot mavzusi, kerakli adabiyotlar va mavzu rejasini o'quvchilarga tavsiya qiladi. Tavsiya etilgan reja va manbalar asosida o'quvchi-talabalar mashg'ulotga tayyorlanib keladilar. Ma'ruza didaktik vositalar yordamida quyidagilarga amal etgan holda olib boriladi:

1. Didaktik vositalarga tayangan holda ma'lumotlarni o'quvchilar tomonidan faol bayon etishni amalga oshirish;

2. Mavzu mazmunini didaktik vosita turiga mos muammoli vaziyatlarni yaratish va amalga oshirish orqali yoritish;

3. Ma'ruza mazmuniga mos muammoli savol-topshiriqlarni talabalar oldiga qo'yish.

Talabalarning manbalar asosida mavzu doirasida fikrlarini erkin, mustaqil, ijodiy bayon etishini uyushtirish orqali mavzu mazmunining eng muhim jihatlari yoritiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan va didaktik vositada ifodalangan bilish faoliyatini yo'lga qo'yuvchi muammoli topshiriqlarni qo'yib o'qituvchi – dialogi asosida ish tashkil etiladi. Bunda ta'lim jarayonida muammoli topshiriqni echish jarayonida tafakkur, ichki o'quv munosabatining rivojlanishi, ta'minlanadi va didaktik vositaning ko'maklashuvchi funktsiyasi anglab olinadi.

O'qituvchining didaktik vosita yordamida, talabalar bilan diologik munosabat quyidagi sharoitlar orqali amalga oshiriladi:

- ma'ruza mazmuni asosan talabalar tomonidan didaktik vosita yordamida yoritilib, o'qituvchi yo'naltiruvchi yoki derijyor rovida bo'lishi;

- o'qituvchi mashg'ulotda suhbatdosh tarzida ishtirok etib, talabalar fikriga fikrdosh, ular bilimlariga havas qiluvchi, qiziquvchi shaxs sifatida ishtirok etishi;

- talabalarni mustaqil fikr yurituvchi va xulosaga olib keluvchi shaxs sifatida o'qituvchining ishtirok etishi;

- egallangan bilimlar, shakllangan ko'nikma va malakalarning yakuniy xulosasining didaktik vosita, manba, darslik, o'quv dasturidagi uzviy bog'liqlikning ta'minlanganligiga ishonch hosil qilish.

Bu faoliyatning metodik jihatdan qanchalik aniq ishlab chiqilganligini ko'rsatadi. Shunda manba, darslik, didaktik vositaning o'quv jarayoni, bilimlarni o'zlashtirishdagi salohiyatiga ishonch hosil qilinadi. Bunday ma'ruzalarda didaktik vositalardan foydalanishning metodik, psixologik, gigienik jihatlarni inobatga olish talab etiladi. shunda talabalarni mustaqil xulosalarga kelish, izlanish, noaniqni tadqiq qilish va o'qituvchi bilan hamkorlikda fikr yuritish yo'lga qo'yiladi.

Ta'lim muassasalarida olib boriladigan o'quv ishlarining yana bir shakli amaliy (seminar) mashg'ulotlaridir. Seminar mashg'ulotlarida talaba-o'quvchilar, o'qituvchi-professor rahbarligida fanning metodologik asoslarini amaliy egallab, ilmiy izlanish metodikasini egallaydilar. Shunga ko'ra seminar mashg'ulotlari talabalarning ijodiy tafakkurini, mustaqil

bilish faoliyatini amalga oshirishning eng qulay shakli hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida, ayniqsa, professional ta'lim va oliy ta'lim maktablarida bilim, ko'ikma, malakalarni egallashda o'quvchi-talabalarning mustaqil ishlarini yo'lga qo'yish, ijtimoiy-pedagogik talabga aylanganligi munosabati bilan seminar mashg'ulotlarining roli kuchaydi.

Seminar mashg'ulotlarida didaktik vositalar, ayniqsa axborot va kommunikativ texnologiyalarni tadbiq etish keyingi davrlarda muhim pedagogik hodisaga aylandi. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimida ona tili, chet tillari, matematika, tarix, informatikadan mashqlar, nutq o'stirish, daqiqalari, test topshiriqlarini bajarish va imloviy tayyorgarlikni rivojlantirishda kompyuterdan foydalanish odat tusiga kirib bormoqda.

Kompyuterda mashqlarni bajarish uchun mavzularni o'rganishning kommunikativ dasturi ishlab chiqiladi. Unga tayanch iboralar, mavzuning eng muhim va eng asosiy ma'lumotlari kompyuterning ma'lumotlar omboriga kiritiladi. Shuningdek, eng muhim muammoning o'rni aniqlanib dasturga joylashtiriladi.

Hozirgi davrga kelib, o'qitishga mo'ljallangan ko'plab elektron o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Oddiy matndan boshlab, turli darajada interfaol bo'lgan virtual ko'rgazmagacha. Zamonaviy virtual ko'rgazmalar dasturiy maxsulotlar bo'lib, ularni yaratishda kamida ikki kishi qatnashadi: mazmun qismi muallifi va dasturchi.

Virtual ko'rgazmani yaratishdagi muammolardan yana biri, muallif ijodini kompyuter dasturi ko'rinishiga keltirishda muallif va dasturchini o'zaro hamkorligidir. Qiyinchilik shundan iboratki muallif kompyuter dasturlari imkoniyati to'g'risida yaxshi tasavvurga ega bo'lmaydi, dasturchi esa yaratilayotgan darslik predmeti bo'yicha mutaxassis emas.[3,22]

Buning natijasida muallif tomonidan vazifani to'g'ri qo'ya olmaslik kompyuter texnologiyasi imkoniyatlaridan etarli foydalana olmaslik mehnat sarfi va dastur tayyorlash vaqtini ortishiga olib keladi.

Virtual ko'rgazmani yaratishdan maqsad biror jarayonning ko'zga ko'rinmas, ilg'ab bo'lmaydigan qismlarini namoyish qilib, o'quvchida tasavvurni yanada kuchaytirish hisoblanadi.

Virtual ko'rgazmalar bir-biridan tubdan farq qiladigan uch shakldagi dasturga ajratildi:

Interaktiv namoyishlar.

Ko'p hollarda namoyishli dasturlar kompyuterli laboratoriya bo'la olmaydi, chunki etarli interaktiv elementlarga ega bo'lmaydi, lekin funktsiyalarini tajriba o'tkazish buyurtmasi bo'yicha bajarishi mumkin. Ko'p hollarda bunday dasturlar o'quv materialini qabul qilish uchun qo'shimcha vosita sifatida elektron darslik qismi bo'lishi mumkin.

Oddiy modellar:

Eng ko'p uchraydigan turi. Oddiy model odatda tajriba ishi modeli bo'ladi. Ba'zi belgilariga ko'ra birlashtirilgan oddiy modellar to'laqonli virtual kompyuter laboratoriyasi bo'ladigan tajriba ishlari to'plami bo'ladi.

Bunday turdagi laboratoriyani keng tarqalganligi, ularni yaratish osonligida, chunki bitta yoki ikkita matematik ifoda bilan yoziladigan bitta oddiy jarayon ko'rib chiqiladi, turlicha laboratoriya ishlari esa bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda turli dasturchilar tomonidan bajarilishi mumkin. Bunday yondashuvni universal tizim yaratish shart bo'lmaganda, uncha katta bo'lmagan tajriba ishlari kursi yaratish uchun tavsiya qilinadi.

Universal laboratoriya:

Agar uning imkoniyatlaridan bitta tajribada turlicha hodisalarni tajribadan o'tkazishda foydalanish imkoniyati bo'lsa, kompyuterli laboratoriyalar haqiqatda universal hisoblanadi. Universal laboratoriya-larni yaratish tajribali dasturchilar guruhi tomonidan, ko'p hollarda ilmiy yo'q ishlab chiqarish bilan bog'liq modellashtirish tizimini tajriba sifatida qo'llab amalga oshiriladi.

Pedagogik texnologiyaning xislati shundaki, unda qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni yaratiladi va amalga oshiriladi. O'qitish texnologiyasi quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

-o'quv maqsadlarini o'ta aniq darajada ishlab chiqarish, ularni o'lchash va baholash mezonlarini tanlab olish;



-qo`yilgan o`quv maqsadlariga erishishga yo`naltirilgan o`quv jarayonini ishlab chiqish va aniq ifoda etish;

-o`quv maqsadlarini, butun o`quv jarayonini, o`qitish natijalariga kafolatli erishishga yo`naltirish;

-o`qitish natijalarini, operativ zudlik bilan baholash va o`qitish jarayonida tuzatishlar kiritish;

-o`qitish natijalarini, operativ zudlik bilan baholash va o`qitish jarayonida tuzatishlar kiritish; o`qitish natijalarini yakuniy baholash.[4,76]

Fan va texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib bormoqda, auditoriyada o`qitish imkoniyatlari katta bo`lgan yangi pedagogik texnologiyalar kirib kelmoqda. Shundan kelib chiqib, o`qituvchi ta`lim jarayonini loyihalashtiruvchi «texnolog» sifatida faoliyat ko`rsatadi. O`qituvchi-texnologlarning o`ziga xos xususiyatlari shundaki, ular o`qitish maqsadi va tashkiliy shakllariga mos holda samarali didaktik jarayonlarni rejalashtiradi va amalga oshiradi.

Hozirgi kunda ta`lim jarayonida qo`llanib kelayotgan konferentsiya darsi, sayyohat darsi, seminar darsi, munozara darsi, sud darsi, tabiat darsi, teatr darsi, kompyuterlashtirilgan darsi, ekskursiya darsi, amaliyot darsi, fantaziya darslari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgandir. Bu darslarni tashkil qilishda o`qitishning turli samarali usullaridan: aqliy hujum, topqirlik, xotira mashqi, meni top, dam olish bekati, qiyosiy xotira, ma`naviyat daqiqasi, she`riy lahzalar, tafakkur mashqi, chaqqonlar bellashuvi kabilardan foydalanish ta`lim jarayonini jonlantiradi.

Axborot texnologiyasi va texnik vositalar samarasini belgilaydigan didaktik materiallardan keng foydalanish zamonaviy ta`lim texnologiyalarining eng asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

XULOSA. Yangilanayotgan O`zbekiston taraqqiyot dasturida o`quv-tarbiyaviy jarayonni boshqarishning bu muhim vositasiga alohida urg`u berilgan. Bugungi kunda ta`lim jarayonida axborot vositalari sifatida kompyuter, elektron aloqa, radio, video, audio kabi texnik vositalardan keng foydalanishmoqda. Pedagogik jarayonni kompyuterlashtirish istiqbolli yo`nalishlardan biridir. Axborotli ta`lim jarayoni oldindan pedagogik jihatdan loyihalansa-dagina ko`zlangan maqsadga erishish mumkin. SHuning uchun ham zamonaviy ta`lim texnologiyalarida ta`lim jarayoni oldindan loyihalalanadi va yakuniy ijobiy natija kafolatlanadi.

Shunday qilib, nazariy va amaliy mashg`ulotlar jarayonida didaktik vositalar majmuidan foydalanish, birinchidan, talabalarning o`quv didaktik va texnik tafakkurini shakllantirishga, zamonaviy texnika vositalari bilan ishlash ko`nikmalarini hosil qilishga yordam bersa; ikkinchidan o`rganadigan fanlar mazmunini yangi davr talablaridagi ma`lumotlar bilan to`ldirishni, manbalar bilan mustaqil ishlash ko`nikma va malakalarini shakllanishiga amaliy yordam ko`rsatadi; uchinchidan, didaktik vositalar majmuini mashg`ulotlarga keng qo`llashga o`qituvchi-professorlarni yo`naltiradi; to`rtinchidan, talaba-o`quvchilarning xotirasini, ijodiy qobiliyatlarini, jismoniy barkamolligini rivojla-nishini ta`minlaydi; beshinchidan, o`quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish, mukammallashtirishning pedagogik asoslarini kuchaytiradi va o`qitishning insonparvarlashtirish tamoyilini ro`yobga chiqarish orqali bo`lajak mutaxassislarni ma`naviy-axloqiy salohiyati va kasbiy mahoratni oshirishga imkon yaratadi.

Shuning uchun ham, o`qitishning didaktik vositalarini nazariy va amaliy mashg`ulotlar jarayoniga tadbqiq etish kadrlar tayyorlash milliy dasturi nazarda tutgan asosiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. АБДУЛЛАЕВ К. Ф. Мыслители востока о педагогической профессии //Культура мира и ненасилия подрастающего поколения: ракурсы интерпретации и педагогические условия развития. – 2020. – С. 117-120.

2. Абдуллаев К. Ф., Бобомуродова Н. Ж. К проблеме взаимодействия общества и природы //Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI века. – 2019. – С. 255-256.

3. Кравченя, Э.М. Технические средства обучения и методика их применения: методическое пособие / Э.М. Кравченя. – Минск: БНТУ, 2011. – 55 с.

4. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. Учебное пособие. — М.: Народное образование, 1998. — 256 с. — ISBN 5-87953-127-9.